

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR

Abduzalilova Zulfizar Abdujalil qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Logopediya

yo'nalishi 1-bosqich 102- guruh talabasi.

Ilmiy raxbar; Jo'raxo'jayev Muhammadaziz

„Maktabgacha ta'lim” fakulteti dotsenti.

Anotatsiya: Ushbu maqolada autizm sindromiga chalingan bolarning jamiyatda ijtimoiylashuvida psixokorreksion vazifalarning amaliy jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Autizm sindromli bolarning ijtimoiy moslashuvi muammosi yechimlarining psixologik xususiyatlari qisqacha tahlil etildi. Autizm sindromli bolalar hayotiy faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi omillar psixologik tahlil qilinib, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini amalga oshirish, tizimda ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Autizm kasalligi, sensor sezgi, motorika, o'z-o'ziga xizmat, pedagogika, psixologiya, ruhiyat, tashxis, korreksiya, rivojlanish jarayoni, muloqot.

Annotation: This article shows the practical aspects of psychocorrective tasks in the socialization of children with autism syndrome in society. Psychological characteristics of solutions to the problem of social adaptation of children with autism syndrome were briefly analyzed. Factors hindering the life activities of children with autism syndrome are psychologically analyzed, their successful socialization taking into account their socio-psychological characteristics, and the characteristics of social-psychological services in the system are analyzed.

Key words: Sensory perception, motor skills, self-service, pedagogy, psychology, psyche, diagnosis, correction, development process, communication.

***Аннотация:** В данной статье показаны практические аспекты психокоррекционных задач при социализации детей с синдромом аутизма в обществе. Кратко проанализированы психологические особенности решения проблемы социальной адаптации детей с синдромом аутизма. Психологически проанализированы факторы, затрудняющие жизнедеятельность детей с синдромом аутизма, их успешная социализация с учетом их социально-психологических особенностей, а также особенности социально-психологической службы в системе.*

***Ключевые слова:** Сенсорное восприятие, моторика, самообслуживание, педагогика, психология, психика, диагностика, коррекция, процесс развития, общение.*

Kirish

Har yili butun dunyoda autizm sindromli bolalar soni ortib bormoqda. Autizm klinik ko'rinishlarining xilma-xilligi, ushbu kasallikning murakkab shakllari mavjudligi, shuningdek, korreksiyalash va tarbiyalash ishlarining murakkabligi autizm sindromini o'rganish nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va dolzarb muammodir.

Hozirgi kunda yurtimizda alohida yordamga muhtoj bolalarni o'rganish, ulardagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, ularni oldini olish, maxsus yordamga muhtoj bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ulardagi nuqsonlarni korreksiyalash bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda. Yurtimizda bunday bolalarga yuksak e'tibor qaratilib, ularning huquq va erkinliklari qonun tomonidan kafolatlanib, ularning ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda.

Asosiy qism

Ma'lumki, autizm sindromli bolalar irqi, dini va oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, butun dunyoda tug'iladi. Amerika statistikasining 2021 va 2023 yillarda chop etilgan ma'lumotlari buni tasdiqlaydi. Biroq, so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Qo'shma Shtatlarning ba'zi mintaqalarida afro-amerikalik va ispan oilalaridagi bolalar kamroq va kechroq tashxislanadi va

ularda aqliy zaiflik tashxisi ko'proq uchraydi. Mumkin tushuntirishlar shundan iboratki, qashshoqlik, erta tug'ilishning yuqori ko'rsatkichlari va afro-amerikalik oilalar diagnostika xizmatlaridan kamroq foydalanishadi va yordam dasturlariga kamroq kirishadi. Bizning yurtimizda ayni paytda autizmni davolash bo'yicha real harakatlar Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi (RBIMM) va xususiy markazlar tomonidan amalga oshirilib kelmoqda. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi hozirgi kunda autist bolalarga bepul xizmat ko'rsatayotgan asosiy davlat muassasasi hisoblanadi.

Autizm miyaning rivojlanishi yoki ishlashidagi buzilish natijasida yuzaga keladi. Odatda autizmning dastlabki belgilari 2 yoshli bolalarda namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda, bu kasallik tug'ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Kasallik o'g'il bolalarda qizlarga qaraganda 4 baravar ko'proq aniqlanadi.

Autizm bu atama 40 yil oldin kirib kelgan, munozarali, lekin ba'zilarning baxslashib kelishicha, shaxsga (odatda bolaga) "autistiklik" deb tashxis qo'yish mumkin. Bu xastalikning asosiy belgisi bolaning muloqot qilishdagi qiyinchiligi, boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan o'zini tortib, go'yo o'zining olamida yashayotgandek tuyuladi. Ba'zi autistik cheklanishlari bo'lgan odamlar bitta ma'lum sohaga (masalan rassomchilik) qaratilgan ajoyib qobiliyatlarini namoyon etadilar va boshqalari esa me'yoriy "normal" holatga tushib qoladilar. Shunga qaramay, butun olamda bu xastalikka xanuzgacha davo topilgani yo'q. Autizm miya faoliyatining buzilishi bo'lib, atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot chog'ida ular turli muammolar kelib chiqadi. Ushbu kasallikka erta tashxis qo'yilishi bemorlarga jamoa orasida o'z o'rnini topishga yordam beradi. Millat, elat, madaniyat, din va ijtimoiy tabaqa tanlamaydigan bu sindrom ayollarga nisbatan erkaklarda ko'p uchraydi. Shunday fikrlar ham ilgari surilganki, bolalarga qilinadigan vaksinalar autizmga sabab bo'lishi mumkin. Biroq bu fikr haqiqatdan ancha yiroq bo'lganligi bois o'z tasdig'ini topmagan. Autizm, asosan, 3 yoshgacha bolalarda aniqlash mushkul bo'lgan holatda uchraydi. Bu

quyidagilarda ko‘rinadi: 1 yoshgacha “gu-gu”lamaydi (yoki bu chinqiriqni eslatadi), 16 oygacha hech bir so‘z aytmaydi, 2 yoshgacha ikkita so‘zdan jumla tuza olmaydi; nutqqa ega bo‘lmaydi; odamlar yoki hayvonlar harakatiga, turli tovushlarga taqlid qilolmaydi; barobar bo‘lmagan ohangda gapiradi (tovush ohangi va tezligi buzilgan bo‘ladi, robot singari “qotib qolgan nutq”da so‘zlaydi); kishilik olmoshini qanday eshitsa, shundayligicha takrorlaydi; bitta jumlani takrorlayveradi (exolaliya). Noverbal kommunikatsiya: bola bir yoshgacha predmetlarni ko‘rsatib berolmaydi; imo-ishoralarni qo‘llamaydi; hech bir so‘z, imo-ishoradan foydalanmay, shunchaki katta odamning qo‘lidan tutib predmet oldiga olib boradi va unga shu narsani uzatishlarini kutadi; tanishishga qiziqishni namoyon qilmaydi, atrofga butkul befarqlikni his qiladi; odamning ko‘ziga qaramaydi (yoki juda kam holda qaraydi). Idrok etishda quyidagilar ko‘zga tashlanadi: bola uning ismini aytib chaqirsangiz, javob qilmaydi; so‘zlayotgan gapingizni tushunmaydi (uni shovqin sifatida idrok etadi); xuddi kar odam kabi taassurot uyg‘otganicha baland tovushlarga befarqlikni namoyon etadi; muayyan tovushlarga esa juda ta’sirchan (masalan, kuchukning vovullashidan quloqlarini berkitadi); o‘zinining oynadagi aksini tanimaydi. Axloqning boshqa xususiyatlari: predmet yoki so‘zlarga diqqatini jalb qila olmaydi (diqqatini juda kam muddatga jamlaydi); uzoq vaqt davomida bitta tana harakatini takrorlaydi (masalan, u yoqdan bu yoqqa chayqaladi); vaqti-vaqti bilan kuchli g‘azabni his qiladi va namoyon etadi; bitta predmetga uzoq vaqt tikilib turishi mumkin; agar kimdir odatiy hodisalar oqimini o‘zgartirmoqchi bo‘lsa, qarshilik ko‘rsatadi. Ko‘pincha ota-onalar farzandi 3 yoshda bo‘lsa ham, gapirmayotganligini, boshqa bolalardan ajralib turishini sezib qolishadi. Ayrim hollarda bolalar yaxshi gapirib ketishadi, biroq vaqt o‘tishi bilan ularda nutq buzilishi kuzatiladi. Bolalarda nutqning yo‘qolishi yoki umuman gapirmasligi ularning rivojlanishida buzilish borligini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda bolalar o‘zlarini xuddi eshitmayotgandek tutishadi. Tibbiy tekshiruvlar bolaning eshitish a‘zolari joyida ekanligini ko‘rsatadi. Bunday bola bolalar o‘yinlarida o‘zini boshqacha tutadi, tez-tez jahli chiqadi, odatlari

o'zgaradi, ko'p harakatli bo'ladi. Ular yolg'iz o'ynashni afzal bilishadi. Atrofidagi bolalar bilan muloqotga kirishmaydi.

Xulosa

Shuni ta'kidlash kerakki, bolalikdagi autizmda buzilishlar atrof-muhit bilan aloqada past chidamlilik tufayli yuzaga keladi, bu yangilikka yo'naltirilgan xatti-harakatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bolaning yaqin odamlar bilan, shuningdek, uning atrof-muhit haqidagi g'oyalarini cheklash, stereotip va bo'laklarga bo'lish uning mavjud bilim va ko'nikmalarini erkin qo'llashiga to'sqinlik qiladi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz autizmli bolaning hissiy-irodaviy sohasini rivojlantirishning o'ta muhim roli to'g'risida quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin yani, shaxsiyatni shakllantirishning zaruriy sharti - bu erta yoshda ta'sirchan sohani rivojlantirish va hissiy bog'lanishni shakllantirishdir. Autizm sindromli bolalar bilan ta'sirchan hissiy sohani rivojlantirishga qaratilgan tuzatish ishlari ularga normal hissiy rivojga qaytishi uchun katta imkoniyatlar beradi. Faqatgina boshqa odamlar bilan aloqada bo'lgan umumiy tajribada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan atrof-muhit bilan faol mazmunli munosabatlarni rivojlantirish orqaligina autizmni yengib o'tilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. L.Sh Muhammedova M.Ziyavuddinova „Alohida extiyojli bolalarni oilada tarbiyalashusullari”
2. L.R Mo'minov Sh.R Toxitova „alohida extiyojga ega bolalarga erta karreksion rivojlantiruvchi yordam”
3. Fayziyeva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994.-23.b.
4. Alimxo'jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.-12.b
5. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речинской Москва. Влад. 2018
6. Марсиновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. – Л., 2019.

7. Речинская. Е.Г. Дошкольная сурдопедагогика. – М., 2018.

8. Акратова, Х. (2020). Коррекционно-педагогические обобщенности формирования навыков здорового образа жизни у детей с умственной отсталостью в семейных условиях